“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Ma’muriy sud ishlarini yuritishda jamoaviy ariza institutini joriy etish masalalari

Sitora Sadriddinzoda,
Samarqand viloyat ma’muriy sudi sudya katta yordamchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
e-mail: sitorasadriddinzoda62@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada ma’muriy sud ishlarini yuritishda jamoaviy ariza (Class action) institutini joriy etishning huquqiy va protsessual jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda jamoaviy ariza tushunchasi va mohiyati, manfaatdor shaxslar doirasini belgilash mezonlari, arizachilar sonini belgilash, javobgarlar doirasini aniqlash, arizani berish va ko‘rib chiqish tartibi hamda uning huquqiy oqibatlari yoritilgan. Jamoaviy ariza bilan bog‘liq qabul qilinadigan sud hujjatlari tahlil qilingan.Xususan dastlabki eshituvda ushbu turdagi arizalarni berishdagi ahamiyati ko‘rsatilib, jamoaviy arizalarning o‘ziga xos jihatlariga urg‘u berilib, arizachilarning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilgan, shuningdek milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida ilg‘or xorijiy davlatlar AQSH va Rossiya tajribasi o‘rganilib, ma’muriy sud ishlarini yuritish kodeksiga yangi norma kiritish bo‘yicha muallif tomonidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. sud-huquq islohoti, jamoaviy ariza, Class action, huquq va qonuniy manfaat, zarar, preyuditsiya, manfaatdor shaxs, protsessual mexanizm

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и процессуальные аспекты внедрения института коллективного иска (Class action) в административном судопроизводстве. В исследовании освещены понятие и сущность коллективного заявления, критерии определения круга заинтересованных лиц, определение количества заявителей, круг ответчиков, порядок подачи и рассмотрения заявления, а также его правовые последствия. Проанализированы судебные акты, принимаемые в связи с коллективным заявлением.В частности, на предварительном слушании была отмечена важность подачи данного вида заявлений, подчеркнуты особенности коллективных заявлений, уточнены права и обязанности заявителей, а также в целях совершенствования национального законодательства изучен опыт передовых зарубежных стран США и России, автором разработаны предложения и рекомендации по внесению новой нормы в Кодекс административного судопроизводства.

Ключевые слова. судебно-правовая реформа, коллективное заявление, Class action, право и законный интерес, ущерб, преюдиция,

заинтересованное лицо, процессуальный механизм.

Annotation. This article analyzes the legal and procedural aspects of implementing the institution of class action in administrative litigation. The study highlights the concept and essence of a collective application, the criteria for determining the circle of interested parties, determining the number of applicants, the circle of defendants, the procedure for filing and reviewing an application, and its legal consequences. The judicial acts adopted in connection with the collective application were analyzed.Specifically, at the preliminary hearing, the importance of filing this type of application was noted, the specifics of collective applications were emphasized, the rights and obligations of applicants were clarified, and for the purpose of improving national legislation, the experience of advanced foreign countries such as the USA and Russia was studied, and proposals and recommendations were developed by the author to introduce a new norm into the Code of Administrative Court Proceedings.

Keywords. judicial and legal reform, collective application, class action, law and legitimate interest, damages, prejudice, interested party, procedural mechanism

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hisoblanadi. Xalqaro sud amaliyotlariga e’tibor qaratsak, ko‘plab xorijiy davlatlardagi jamoaviy ariza berish instituti (Class action) inson huquqlarini samarali himoya qilishda keng qo‘llaniladigan protsessual mexanizmlardan biri ekanligi namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 33-qarorida ma’muriy sudlarda ushbu tartibda ariza berish joriy qilinishi nazarda tutilgan bo‘lib[12], bunda jamoaviy tarzda ariza berishining huquqiy asoslari, ushbu turdagi arizani ko‘rib chiqishdagi tartibi va huquqiy oqibatlari haqida qat’iy tartib-qoidalar ishlab chiqish hamda qonunchilik darajasida tartibga solish zaruriyatini taqozo etadi.

2. Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va formal-yuridik tahlil usullaridan foydalanilgan. Doktrinal qarashlarni o‘rganish maqsadida yuridik fanda jamoaviy ariza borasida ilgari surilgan nazariy yondashuvlar (A. Zelensov, O. Yastrebov, S. Moiseyev, V. Dolganichev, M. Shvars, G. Ryabchikov, V. Borshenko va b.) guruhlashtirib tahlil qilindi. Shuningdek, AQSH va Rossiya Federatsiyasi kabi xorijiy davlatlarning sud amaliyoti va qonunchilik tajribasi qiyosiy o‘rganildi.

3. Olingan natijalar tahlili va muhokamasi

3.1. Jamoaviy ariza tushunchasiga doktrinal yondashuvlar tahlili:

Jamoaviy ariza haqida ko‘plab olimlarimiz turlicha fikr bildirib o‘tishgan, A. Zelensov va O. Yastrebsovlar boshqa hamda noaniq doiradagi shaxslarning huquqini himoya qilish deb bayon qilib, bunda xususiy turdagi arizalar va boshqa turdagi arizalardan jamoaviy arizalarni ajratishadi[4].

S. Moiseyev boshqacharoq yondashib, jamoaviy ariza berishda arizachilarning soniga qarab individual yoki jamoaviy deb e’tirof etish mumkin degan qarashni ilgari suradi[7].

Shuningdek, V. Dolganichev ushbu mavzuda ilmiy izlanish olib borib, quyidagi xulosalarga keladi:

birinchidan, jamoaviy arizalarda qoidalarning umumiylik xususiyati, ya’ni arizani taqdim etishda bir xil shart-sharoit belgilanganligi, ikkinchidan, jamoaviy ariza berishda yakka tartibdagi ariza berishdan ustun jihatlari borligi,uchinchidan, jamoaviy arizalarni ko‘rib chiqish muddati odatda belgilanmaganligi sababli yillar davomida ham ko‘rib chiqilishi mumkin[2]. Ushbu xulosalar o‘rinli bo‘lib, umumiy ma’noda jamoaviy arizalarning xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

M. Shvars qonunchilikka jamoaviy arizalarini ko‘rib chiqishning maxsus protsessual shaklini joriy etishni “ziddiyatli jarayon” deb hisoblaydi, chunki qonun jamoaviy arizani hal qilishning ikki shaklini: dispozitiv, ya’ni guruh a’zolarining ixtiyoriga ko‘ra va imperativ, ya’ni guruh a’zolari o‘rtasidagi moddiy-huquqiy munosabatlarning xususiyatiga asoslangan holda nazarda tutishi kerak[11]. Shu bilan birga, izlanuvchi G. Ryabchikov esa ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida jamoaviy ariza berish instituti o‘z sa’y-harakatlarini bitta sud jarayonini boshqarishga yo‘naltirishi mumkin bo‘lgan ma’muriy javobgarlar, shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir nechta bir turdagi ishlarni ko‘rib chiqish zaruriyatidan xalos bo‘lib, buning uchun cheklangan resurslari mavjud sud uchun qulay deb hisoblaydi[8]. Xususan, “ma’muriy arizalarning o‘ziga kelsak, ko‘rib chiqilayotgan vosita, bir tomondan, davlat organi guruhning jamoaviy manfaatlarini hisobga olishi ehtimol, fuqarolarning huquq va manfaatlariga yanada e’tiborliroq bo‘lishiga olib keladi” deb ta’kidlaydiki.

Ushbu qarashni ham to‘g‘ri deb hisoblaymiz, chunki jamoa tomonidan berilgan arizada barchaning huquq va qonuniy manfaati o‘lchanadi, agarda ular haqiqatdan ham buzilgan bo‘lsa, ularni bartaraf etish chorasi mukammal darajada ko‘riladi, bunga sabab esa jamoaviy ariza bilan bog‘liq ish ko‘rilganda ushbu ishning natijasi bevosita jamiyatga ham o‘z ta’sirini beradi.

V. Borshenko jamoaviy da’vo deganda “qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan, bir yoki bir necha shaxsning, shu jumladan shaxslar guruhining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risida sudga yo‘llangan iltimosnomani o‘z ichiga olgan ariza tushuniladi, uni taqdim etishda da’vogar-vakil shaxsiy huquq va manfaatlarini, shuningdek huquqbuzar tomonidan bir xil huquqbuzarlikka uchragan boshqa shaxslarning (shu jumladan

shaxslar guruhlari yoki da’vo berish paytida aniqlanmagan shaxslar doirasi) huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishni talab qilishi mumkin” degan qarashni ilgari suradi[1].

Yuqoridagi olimlarning qarashlarini tahlil qilsak, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ayrim olimlar (A. Zelensov, O. Yastrebsov, S. Moiseyev) jamoaviy arizaning shakliga, undagi javobgar va arizachilar soniga e’tibor qaratgan holda “ko‘p sonli shaxslar guruhi nomidan amalga oshiriladigan, javobgardan pul summasini undirish to‘g‘risidagi talabni o‘z ichiga olgan va ko‘p sonli shaxslar guruhining barcha ishtirokchilari tomonidan qonuniy mulkiy manfaatlar yo‘lida ilgari suriladigan umumiy yuridik faktga yoki buzilgan huquqni mulkiy tiklash va yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi umumiy talabga asoslangan, ko‘p sonli va shu bilan birga nomuayyan shaxslar guruhining manfaatlarini himoya qilishga asoslangan sudga yozma murojaat” deb ta’kidlaydilar.

2. Boshqa olimlar (V. Dolganichev, M. Shvars, G. Ryabchikov va b.) esa protsessual muqobillik va samaradorlikka urg‘u berib, jamoaviy arizani “sudga yozma murojaat qilish vakolatiga ega bo‘lgan va bir turdagi ishlarni birlashtirish orqali sud resurslarini tejovchi va bir xil huquqiy oqibat keltirib chiqaruvchi mukammal protsessual mexanizm” sifatida ta’riflaydilar.

Agarda umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, muallif tomonidan “jamoaviy ariza bu – sudga murojaat qilishning protsessual mexanizm bo‘lib, unda huquq va qonuniy manfaatlari bir xil tarzda buzilgan bir nechta yoki noaniq sonli arizachilarning umumiy asos va predmetga ega bo‘lgan holda umumiy javobgarga nisbatan berilgan arizasi tushuniladi. Xususan, bir nechta manfaatdor shaxslarning ishlari bitta ishga birlashtirilgan holda ixchamlashtiriladi, hamda ularning buzilgan huquqlari faqat barchaga tegishli bo‘lgan usulda tiklanadi” degan qarash ilgari suriladi.

3.2. Xorijiy amaliyot tahlili va arizachilar miqdori mezoni

Xorij tajribasida jamoaviy arizalarning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, asosan qurilish-arxitektura, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda hududiy jamoat manfaatlarini himoya qilishga oid nizolar bo‘yicha keng qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ustidan berilgan jamoaviy arizalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ijobiy hal etilishi natijasida katta mashstabdagi huquqiy normalarni o‘zgarishiga, ya’ni normativ huquqiy aktlar yoki qonunni o‘zgarishiga olib keladi.

Yaponiya ma’muriy sud amaliyotida esa ma’muriy sud ishlari umumiy tarzda quyidagicha bo‘linadi:

1. Subyektiv sud muhokamasi – subyektiv da’vodan kelib chiqadigan ma’muriy ishlar bo‘lib, bunda shaxsga bevosita daxldor bo‘lgan ma’muriy harakatlar tushuniladi.

2. Obyektiv sud muhokamasi – shaxsga bevosita daxldor bo‘lmagan, shaxsning huquq va manfaatlaridan tashqari ma’muriy faoliyatning qonuniyligini ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Obyektiv

sud muhokamasining o‘ziga xos jihati “institutsion sud jarayoni” va “xalq da’vosi” sud jarayonlarining mavjudligi hisoblanadi. Institutsion sudlovda asosan davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hokimiyat vakolatini amalga oshirish bilan bog‘liq nizolar, oddiy qilib aytganda ma’muriy organlar o‘rtasidagi nizolar ko‘riladi. “Xalq da’vosi” sud muhokamasida esa ma’lum hududda yashovchi fuqarolar tomonidan o‘sha hududning mahalliy hokimiyat organlarining harakatlari ustidan bergan arizasi tushuniladi[3].

Yaponiyada mazkur amaliyot asosan ixtisoslashgan xarakterga ega bo‘lib, tor doiradagi ishlar asosan mahalliy organlarning harakat (harakatsizligiga) qaratilgan nizolar tushuniladi.

Jamoaviy arizalar ko‘pchilik xorijiy davlatlarda jamoaviy tarzda yozilgan arizani sudga taqdim etish bilan ish shakllantiriladi. Biroq AQSh federal qonunchiligiga ko‘ra, jamoaviy arizalar sudning tashabbusiga ko‘ra sudga taqdim etilgan bir nechta arizani birlashtirish orqali ham shakllantirilishi mumkin.

Biroq shunda savol tug‘iladi, sudga jamoaviy ariza taqdim etishda arizachilar sonini belgilash lozimmi? Agarda arizachilar soni aniq belgilanmasa unda 3-4 ta shaxslar tomonidan berilgan ariza ham jamoaviy arizalar sifatida ko‘rilishiga olib kelishi mumkin. Natijada oddiy arizalar bilan jamoaviy arizalarning farqini ajratish qiyinlashadi.

Qiyosiy tahlil jamoaviy ariza berish uchun zarur bo‘lgan minimal subyektlar soni turlicha ekanini ko‘rsatdi:

AQSh tajribasi: arizachilar soni 100 ta va undan ortiq bo‘lishi talab etiladi. Shaxslar guruhlarga bo‘linib, sudda ular saylagan vakillar ishtirok etadi. Fuqarolar o‘zlari majlis o‘tkazib vakilni saylashadi va sudda shaxsan ishtirok etishlari talab etilmaydi. Fuqarolar o‘zlari hohlagan vaqtda ushbu guruhdan chiqishlari yoki qo‘shilishlari mumkin. Sudning qarori ham umumiy jamoaga qaratilgan tarzda chiqariladi. Ushbu amaliyotning yaxshi jihati shundaki, sud zaliga ko‘plab fuqarolarning yig‘ilishi, tartibsizlikni va ortiqcha sarsongarchilikning oldi olinadi[10].

Rossiya tajribasi: kamida 20 nafar fuqaroning qo‘shilishi nazarda tutiladi, ya’ni bir nechta arizachilarning shaxsan sud majlisiga ishtirok etishi talab etilmaydi, bunda arizachilar nomidan tegishli vakil ishtirok etadi va ushbu vakil jamoaviy ariza berilgan paytda arizadan fuqarolar tomonidan ko‘rsatilgan bo‘ladi, ya’ni alohida ishonchnoma olish talab qilinmaydi[5]. Yuqoridagilarga asoslangan holda, bizning sud amaliyotida shunga o‘xshash tartib joriy qilinsa ya’ni, arizachilar shaxsan ishtirok etaolmagan hollarda jamoaviy ariza berilayotgan paytda ushbu arizada o‘z vakillarini ko‘rsatishlari lozim hisoblanadi, biroq ushbu vakilning ham boshqa arizachilardek huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan bo‘lishi shart hisoblanadi. Shunda fuqarolarning ortiqcha sarsongarchiligi va resurslarni tejashga olib keladi.

Izlanuvchi milliy ma’muriy sud amaliyoti va mavjud nizolar xususiyatidan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston sharoiti uchun

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

minimal 20 nafar arizachi mezonini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Tadqiqot jarayonida jamoaviy arizalarni ko‘rib chiqishning bir qancha muhim protsessual jihatlari aniqlandi:

1. Javobgarlar tarkibi: ayrim xorijiy davlatlarning sud amaliyotida jamoaviy ariza berishning asosiy shartlaridan biri bu umumiy bitta javobgarning mavjud bo‘lishi lozim hisoblanadi. Biroq, Rossiya qonunchiligiga ko‘ra esa javobgarlar soni cheklanmagan bo‘lib, asosiysi umumiy talab shu javobgarlarga tegishliligiga e’tibor qaraladi. Bizning fikrimizcha ham shunday amaliyot to‘g‘ri hisoblanib, masalan ariza taqdim etilayotgan talabdan kelib chiqqan holda ikkita ma’muriy organ (yer bilan bog‘liq nizolarda) hokimiyat va kadastr agentligi javobgar sifatida ishga jalb qilinsa, bitta sud ishi bilan hamma holatlar o‘rganiladi, yana qayta sudga murojaat qilish lozim bo‘lmaydi.

2. Preyuditsiallik va muqobil arizalarni to‘xtatish: Jamoaviy ariza ko‘rilayotgan bir vaqtda ayni bir predmet va asoslar bo‘yicha yakka tartibda ariza berilsa, unga jamoaviy arizaga qo‘shilish huquqi tushuntirilishi kerak. Individual arizachi rad etgan taqdirda, uning arizasi bo‘yicha ish jamoaviy ariza bo‘yicha qabul qilingan qaror qonuniy kuchga kirgunga qadar to‘xtatib turilishi lozim (I. Lukyanov va M. Stepanchuk konsepsiyasi)[10].

Ushbu holatda jamoaviy da’vo bo‘yicha hal qiluv qarorining preyuditsialligini inobatga olish muhim bo‘lib, shu xususida olim I. Lukyanovning fikricha, jamoaviy arizalarni ko‘rib chiqishda kelishuv bitimini tuzish tartibi, shuningdek, bunday ishlarda aniqlangan holatlarning preyuditsial ahamiyati hamda chegaralari to‘g‘risida aniqroq qoidalar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatgan[6].

Izlanuvchi M. Stepanchuk esa “ilgari to‘xtatilgan nizolarni ko‘rib chiqishda jamoaviy da’vo bo‘yicha hal qiluv qarorining preyuditsialligi to‘g‘risidagi qoidani qonunda to‘g‘ridan to‘g‘ri belgilash maqsadga muvofiq, toki tomonlar o‘z nuqtayi nazarini asoslash uchun jamoaviy da’vo bo‘yicha hal qiluv qaroriga havola qilishlari mumkin bo‘lsin” deb o‘z fikrini bildiradi[9]. Xususan, Rossiya qonunchiligiga ko‘ra, agarda jamoaviy tarzda berilgan ariza sudda ko‘riliyotganda boshqa shaxs tomonidan alohida xuddi shunday talab bilan ariza berilsa, ushbu shaxsga jamoaviy arizaga qo‘shilishi mumkinligi tushuntiriladi, tegishli shaxs rozi bo‘lmasa unda uning arizasi ko‘rilmaydi va jamoaviy arizaga chiqarilgan qaror qonuniy kuchga kirgunicha to‘xtatib turiladi.

3. Dastlabki eshituvda jamoaviy arizalar.

Dastlabki eshituv instituti sud ish yurituvining asosiy filtr vazifasini bajargani uchun ushbu institutni qo‘llash jarayonida jamoaviy arizalar yanada mukammallashtiriladi va aniqlangan texnik xato, kamchiliklar o‘z joyida bartaraf etiladi. Shuningdek aynan ushbu institutda jamoaviy ariza berishga vakolatli va manfaatdor shaxslar doirasi aniqlashtiriladi, bu esa kelajak kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ortiqcha sarsongarchiliklarni oldi olinadi.

Ushbu mavzuga doir mavjud sud amaliyotlari tahlil qilinganda jamoaviy ariza berishning quyidagi o‘ziga xos jihatlari ko‘rinadi, jamoaviy ariza berishda barcha a’zolarning bir xil huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilgan bo‘lishi kerak, agarda a’zolarning birida boshqa huquqlari yoki manfaatiga zarar yetkaziladigan bo‘lsa unda bunday ariza jamoaviy ariza deb e’tirof etilmaydi. Shunda sud ishi yuritilayotgan vaqtda yuqoridagi holat aniqlansa sudyaga tegishli shaxsni jamoaviy arizadan chiqarish vakolatini berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Jamoaviy ariza bilan bog‘liq qabul qilinadigan sud hujjati nozikroq xususiyatga ega bo‘lib, odatda ushbu sud hujjati barcha uchun bir xil huquq va majburiyatni keltirib chiqaradi. Biroq, ushbu sud hujjati kengroq doirada o‘z ta’sirini beradi, ko‘p hollarda jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. (Masalan, atrof tabiiy muhitni asrash bilan bog‘liq nizolar ko‘rilganda shu hududda yashovchi fuqarolarga ham o‘z ta’sirini beradi).

4. Xulosa va takliflar.

1. Olimlarning doktrinal yondashuvlari tahlil qilgan holda muallif tomonidan jamoaviy ariza tushunchasiga o‘z ilmiy qarashlari ilgari suriladi.

2. Rossiya va AQSH da jamoaviy arizalarni berish tartibi tahlil qilinib, muallif tomonidan arizachilar sonini 20 kishi deb belgilash hamda Rossiya tajribasini qo‘llagan holda arizada vakilning belgilanishi orqali ishonchnoma talab etmaslik tajribasini milliy sud amaliyotida qo‘llash tavsiya etiladi.

3. Rossiya tajribasi qo‘llangan holda, sud jarayonida javogarlar sonini cheklamaslik amaliyoti ijobiy baholanib, asoslantiriladi va milliy sud amaliyotida qo‘llash tavsiya etiladi.

4. Jamoaviy arizalarni ko‘rib chiqishda dastlabki eshituvning o‘rni yuzasidan mulohazalar yuritiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish kodeksiga quyidagi mazmundagi 127-1-moddani kiritish taklif etiladi: “127-1-modda. Jamoaviy ariza berish va uni ko‘rib chiqish tartibi

Jamoaviy arizalar yigirma va undan ko‘p arizachilarning umumiy arizasiga asosan yoki ayni bir asos va ayni bir predmetdan iborat bir nechta arizachilarning arizasini birlashtirish orqali shakllantiriladi. Bunda arizachilar shaxsan ishtirok eta olmagan hollarda ushbu arizada o‘z vakillarini ko‘rsatishlari lozim bo‘lib, biroq ushbu vakilning ham boshqa arizachilardek huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan bo‘lishi shart hisoblanadi. Jamoaviy ariza sudda ko‘rilayotganda boshqa shaxs tomonidan alohida xuddi shunday talab, asos va predmet bilan ariza berilsa, sud tomonidan ushbu shaxsga jamoaviy arizaga qo‘shilishi mumkinligi tushuntiriladi, tegishli shaxs rozi bo‘lmasa unda uning arizasi ko‘rilmaydi va jamoaviy arizaga chiqarilgan qaror qonuniy kuchga kirgunicha to‘xtatib turiladi. Sudda jamoaviy ariza yuzasidan ish mavjud bo‘lsa yoki sud hujjati qabul qilingan bo‘lsa, shu jamoaning ishtirokchisi tomonidan qaytadan xuddi shunday asos va predmet

bo‘yicha sudga individual tarzda ariza berish mumkin emas”.

Jamoaviy ariza berish xorijiy sud amaliyotida keng qo‘llanib, o‘z ahamiyatiga ega bo‘lgan ishlar toifasiga kiradi.Uning afzalliklaridan biri shundaki, bunda barcha ishtirokchilar teng huquq va majburiyatga ega bo‘lishadi, hamda barcha resurslarni birlashtirgan holda harakat qilishadi. Masalan dalillarni taqdim etish, ish holatlarga aniqlik kiritishda bir xil tarzda harakat qilishadi. Shuningdek, shaxs yakka o‘zi harakat qilgan holda sudga qatnashishi, o‘z huquqlarini himoya qilishda hamda sud xarajatlarini to‘lashda qiyinchilikka uchrashi mumkin. Jamoaviy arizalarni berish sud xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Ma’muriy sudlarda jamoaviy ariza institutini joriy etish sud xarajatlari va vaqtni tejash, protsessual tejamkorlikni ta’minlash hamda bir turdagi nizolar bo‘yicha qarama-qarshi sud qarorlari chiqarilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Борщенко В. В. Особенности возбуждения производства по групповым искам // Legea si Viata (Закон и жизнь). – 2013. – № 8. – С. 3–6.

2. Долганичев В. В. Новый групповой иск в России: краткий обзор // Арбитражный и гражданский процесс. – 2019. – № 11. – С. 14–19.

3. Japanese Law Translation: TOP. https://www-japaneselawtranslation gojp.translate.goog/en/laws/view /3781/en?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=ru&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=sc

4. Зеленцов А. Б., Ястребов О. А. Судебное административное право : учебник. – М. : Статут, 2017. – С. 439–440.

5. Кодекс административного судопроизводства Российской Федерации от 08.03.2015 N 21-ФЗ (ред. от 20.03.2025) https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/.

6. Лукьянова И. Н. Защита прав граждан групповым иском // Закон. 2019. № 12. С. 166–175

7. Моисеев С. В. Понятие и элементы административного иска // Административное судопроизводство / под ред. М. К. Треушникова. – М. : Городец, 2017. – С. 113.

8. Рябчиков Г. Г. Групповой иск в арбитражном процессе // Юридический справочник руководителя. – 2021. – № 3. – С. 39–50.

9. Степанчук М.В. Новый групповой иск в российском судопроизводстве // Арбитражный и гражданский процесс. 2015. № 11. С. 47–51.

10. Cornell law school. Class action. https://www.law.cornell.edu/wex/class_action

11. Шварц М. З. Об императивном и диспозитивном в регулировании процессуальных форм защиты групповых интересов // Закон. – 2021. – № 2. – С. 31–33.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги “Фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ҳуқуқларини суд орқали ҳимоя қилишнинг замонавий механизмларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 33-қарори // https://www.lex.uz/uz/docs/-7350794